

MAHABXORAT DOSTONIDA IJTIMOIY-FALSAFIY MASALALAR QO‘YILISHI

Nizomova Odina Shavkat qizi
TDSHU, “Sharq falsafasi va madaniyati” yo’nalishi magistranti,
tel: (91) 1908100

Anotatsiya: Ushbu maqolada Qadimgi Hindistonda falsafaning ilk kurtaklari shakllanishi, madaniyati, tarixida alohida o‘rin tutgan buyuk epos “Mahabxorat” dostoning yaratilishi, uning hind xalqi hayotidagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi. “Mahabxorat” dostonidagi insonning borliqdagi o‘rni va ahamiyati, uning jamiyatdagi o‘rni haqida qimmatli ma’lumotlar bilan tanishish bizga qadimgi Hindiston falsafasini chuqurroq o‘rganishimizga imkoniyat beradi.

Tayanch iboralar: Hindiston falsafasi, “Mahabxorat” dostoni, Pandavalar, Kauravlar, “Bhagavadgita”, Krishna, Arjuna, Inson, ijtimoiy va falsafiy masalalar.

“Mahabxorat” dostoni nafaqat tarixiy va adabiy manba sifatida balki, bevosita qadimgi hind xalqining Ijtimoiy va falsafasiy masalalarini ochib beradi. “Mahabxorat” dostonining asosiy syujetlari jangnomalarni tashkil etadi. Unda qadimiy qahramonlar ularning jasorati va saxovati, mardligi va zafari haqida yozilgan. Aynan shu qahramonlar hayoti asosida biz qadimgi Hindiston falsafiy tafakkurini anglashimiz mumkin.

“Mahabxorat” dostoni bevosita qadimgi hind xalqining Ijtimoiy va falsafasiy masalalarini ochib beradi. “Mahabxorat” dostonining asosiy syujetlari jangnomalarni tashkil etadi. Dostonining asosiy syujeti Kuruning avlodlari Pandavlar hamda Kauravlar o‘rtasidagi toju taxt uchun kurashni tashkil etadi. Unda qadimiy qahramonlar ularning jasorati va saxovati, mardligi va zafari haqida yozilgan.⁴⁰ Aynan shu qahramonlar hayoti asosida biz qadimgi Hindiston falsafiy tafakkurini anglashimiz mumkin.

“Mahabxorat” ning barcha qahramonlari u yoki bu tarzda hal qiluvchi sinovga duch kelishmoqda. Biron bir vaqtida ular shaxsiy va umumiyl manfaat, o‘z manfaatlari bilan va o‘z harakatlarining samaralari bilan qiziqmaslik, kuchli huquq va qonun, umumbashariy burch, abadiy dharma o‘rtasida tanlov qilishlari kerak. Ushbu tanlovning tabiat, oxir-oqibat, eposdagi qahramonlarni joylashtirish natijalarini, Kuru maydonidagi jang natijalarini belgilaydi. Pandavalar “Mahabxorat” da kauravalarga qarshi emas, shunchaki xafa bo‘lgan jinoyatchilar yoki ko‘ngli zaif odamlarga, ularning raqiblariga qarshiadolat tarafdarlari sifatida tasvirlanadi.⁴¹

Inson hayotining mazmuni, axloq haqidagi shaxsiy va umumbashariy g‘oyalarning aloqasi va to‘qnashuvi muammolari bu yerda Krishnaning aravachasi sifatida aravasini boshqaradigan Arjuna bilan Krishnaning suhbatida hal qilinadi.⁴² Kuru maydonidagi jang boshlanishidan oldin Arjuna raqiblari orasida “bobolari, otalari, ustozlari, amakilari, aka-

⁴⁰ Sotiboldi Yo’ldoshev Mahabharata yoki Bharata avlodlari jangnomasi tarjima. Toshkent. 1966. – B.5

⁴¹ С.Липкина. Великий епос Индии.Художественная литература; Москва.1974. – C.10.

⁴² Гринцер П.Великий эпос Индии Махабхарата, Рамаяна. М.: Астр. -1974. 421c.

ukalari, o‘g‘illari va nabiralarini” ko‘radi va birodarlik qirg‘inidan qo‘rqib, jang qilishdan bosh tortadi, kamon tashlaydi. Va keyin Krishna, oliy mavjudot sifatida, Arjunaning ruhiy rahbari sifatida unga nasihat qiladi.

“Mahabxorat” millatning barcha qadimiy e’tiqodlari va urf-odatlarini umumlashtirgan. Bu o‘z qamrovi jihatidan shu qadar keng qamrovligi, hatto mashhur so‘z bor: “Mahabxorat” da bo‘limgan narsani, bharatalar yurtida topolmaysan”. “Mahabxorat” Hindiston ichida joylashgan turli xil xalqlarning ijtimoiy va diniy g‘oyalarini birlashtirib, odamlar ongida Bharatavarshining tub birligi g‘oyasini ta’sir qilishga harakat qiladi.⁴³

Xulosa qilib aytganda, “Mahabxorat” dostonining yaratilishi bevosita shu davrdagi hind tafakkuri namunasi sifatida, hind xalqining Ijtimoiy, falsafasiy qarashlarini bayon etadi. “Mahabxorat” dostonida asosiy qo‘ylgan masala bu insonning hayotdan maqsadi, bu dunyoda qanday yomon amallarni qilmaslik, va aksincha, qanday amallarni qilish kerakligi ochib berilgan. Masalan inson ochko‘zlik, hasadgo‘ylik, fitna, g‘azabdan yiroq bo‘lishi haqida qahramonlar hayoti bn ochib beriladi.

ADABIYOTLAR:

1. Sotiboldi Yo‘ldoshev. “Mahabharata yoki Bharata avlodlari jangnomasi”. Toshkent: 1966. 216b.
2. D. Po’latova, M.Qodirov, M. Ahmedova “Falsafa tarixi (Sharq falsafasi)” o’quv qo’llanma – T.: 2013.
3. Гринцер П.Великий эпос Индии Махабхарата, Рамаяна. М.: Астр. -1974. 421с.
4. С.Липкина. Великий епос Индии.Художественная литература; Москва.1974. 326с.

⁴³ D. Po’latova, M.Qodirov, M. Ahmedova “Falsafa tarixi (Sharq falsafasi)” o’quv qo’llanma – T.: 2013.